




New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

12 (62) 2023

**Сопредседатели редакционной
коллекции:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛИОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

12 (62)

2023

ноябрь

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

Received: 20.11.2023, Accepted: 27.11.2023, Published: 10.12.2023.

UDC 616.314-073.75 +616.314.17-008.1

SURUNKALI TARQALGAN PARODONTITDA YALLIG'LANISH-DISTROFIK JARAYONLARNING TARQALISHI VA IMMUNO-PATOGENETIK XUSUSIYATLARI

Radjabova Azizakhanum Farmonovna. <https://orcid.org/0009-0000-0240-3135>

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro, st. A. Navoiy. 1 Tel:
+998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Rezyume

Paradont to'qimasining destruksiyasi bilan kechadigan umumiy yalliglanish kasalliklari stomatologiyada keng tarqalgan bo'lib, butun dunyo bo'ylab katta aholining 90 foizida kuzatiladi va jiddiy tibbiy va ijtimoiy muammo hisoblanadi. Paradontning destruksiyasi bilan kechadigan kasalliklari nafaqat og'iz bo'shlig'idagi mikroorganizmlar muvozanatining buzilishi, balki boshqa somatik kasalliklar fonida ham kechishi sababli, ushbu kasallikning diagnostikasi va davolanishi stomatologiyada ko'plab muammolarni vujudga keltiradi. Shu sababli, ko'p yillar davomida kasallikning etiologiyasi, patogenez va hatto nomining o'zi ham munozarali bo'lib qolmoqda. Bu esa ko'plab kasallik tasniflarilarini keltirib chiqarilishiga sabab bo'lmoqda. So'nggi o'n yilliklarda surunkali tarqalgan paradontitning turli shakllaridagi etiopatogenezini va ularning boshqa organ sistemalari bilan o'zaro ta'sirini tushunishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Bundan tashqari, og'iz bo'shlig'i sanasiyasi va tizimli sharoitlarda, xususan, oshqozon-ichak yara kasalliklari fonida kechadigan ko'rinishida davolashni muqobillashtirishga muhim ahamiyat berildi. Ushbu maqolada paradont kasalliklarining rivojlanishida asosiy etiologik omillar haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, ularning rivojlanish mexanizmlarini zamonaviy stomatologiya nuqtai nazaridan kelib chiqqan holatdagi qarashlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: paradontologiya, etiologiya, patogenez, paradontit, paradontal cho'ntak, mikroorganizmlar, paradontopatogenlar.

РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ И ИММУНОПАТОГЕНЕТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОСПАЛИТЕЛЬНО-ДИСТРОФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ ГЕНЕРАЛИЗОВАННОМ ПАРОДОНТИТЕ

Раджабова Азизаханум Фармоновна. <https://orcid.org/0009-0000-0240-3135>

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан,
г. Бухара, ул. А. Навои. 1 Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Резюме

Обще воспалительные заболевания с разрушением тканей пародонта широко распространены в стоматологии, наблюдаются у 90% взрослого населения во всем мире и представляют собой серьезную медико-социальную проблему. Поскольку деструкция пародонта является не только нарушением баланса микроорганизмов в полости рта, но и возникает на фоне других соматических заболеваний. Диагностика и лечение этого заболевания создает множество проблем в стоматологии. По этой причине этиология, патогенез и даже название заболевания на протяжении многих лет остаются спорными. Это обуславливает множество классификаций заболеваний. За последние десятилетия достигнут значительный прогресс в понимании этиопатогенеза различных форм хронического генерализованного пародонтита и их взаимодействия с другими системами органов. Кроме того, особое значение придавалось санации полости рта и лечению при системных состояниях, в частности, при язвенной болезни желудочно-кишечного тракта. В данной статье представлена информация об основных этиологических факторах развития заболеваний пародонта, а также взгляды на механизмы их развития с точки зрения современной стоматологии.

Ключевые слова: пародонтология, этиология, патогенез, пародонтит, пародонтальный карман, микроорганизмы, пародонтонтопатогены.

PREVALENCE AND IMMUNO-PATHOGENETIC CHARACTERISTICS OF INFLAMMATORY-DYSTROPHIC PROCESSES IN CHRONIC DISSEMINATED PERIODONTITIS

Radjabova A.F. <https://orcid.org/0009-0000-0240-3135>

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, Uzbekistan,
Bukhara, st. A. Navoi. 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Resume

General inflammatory diseases with the destruction of periodontal tissue are widespread in dentistry, are observed in 90% of the adult population worldwide, and are a serious medical and social problem. Since the destruction of periodontal disease is not only a violation of the balance of microorganisms in the oral cavity, but also occurs against the background of other somatic diseases, the diagnosis and treatment of this disease creates many problems in dentistry. For this reason, the etiology, pathogenesis and even the name of the disease remain controversial for many years. This causes many classifications of diseases. In recent decades, significant progress has been made in understanding the etiopathogenesis of various forms of chronic disseminated periodontitis and their interaction with other organ systems. In addition, significant importance was attached to oral cavity sanitation and alternative treatment in systemic conditions, in particular, in the form of gastrointestinal ulcer disease. This article provides information on the main etiological factors in the development of periodontal diseases, as well as views on the mechanisms of their development from the point of view of modern dentistry.

Key words: periodontology, etiology, pathogenesis, periodontitis, periodontal pocket, microorganisms, periodontopathogens.

Dolzarbligi

Parodontit – parodont to'qimasining murakkab multifaktorli surunkali yallig'lanish kasalligi bo'lib, tishning tayanch apparati, ya'ni parodont to'qimasining va alveolyar suyakning progressiv destruksiyasi bilan kechadi. Natijada alveolyar suyakning yo'qotilishi va tishlarning qimirlab qolishiga olib keladi. Bu esa bemorda fiziologik o'zgarishlar keltirib chiqarishi bilan bir qatorda, psixologik holatiga ham salbiy ta'sir qiladi. Keyinchalik tishlarni yo'qitish bilan bir qatorda, bemorning barcha organ va tizimlariga ta'sir qilib, 2 lamchi diabet, yurak-qon tomir kasalliklari, revmatod artrit, oshqozon–ichak kasalliklari, altsgeymer kasalligi, homilador ayollarda past qon bosimi sababli bolaning erta tug'ilishi va og'iz bo'shlig'ida xavfli saraton kasalligini rivojlanishiga ham olib kelishi mumkin, shu o'rinda aksincha yuqoridagi somatic kasalliklarni o'zi ham parodontit rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Parodontal to'qimalarda patologik jarayonning rivojlanishiga ham ekzogen, ham endogen omillar ta'sir qiladi. Ushbu yallig'lanish chaqiruvchi omillarning xilma-xilligiga qaramay, deyarli barcha bemorlarning parodontal to'qimalarida yallig'lanish va distrofik-degenerativ jarayonlar bir xilda kichadi. Shu bilan birga etiologik ta'sir qilish joyiga, davomiyligiga qarab omillar morfologik va patofiziologik jihatdan o'zini turli variantlarda namoyon qiladi.

To'qimalarning holatiga quyidagi mahalliy omillar ta'sir qiladi: tish blyajkasi, mikroflora, travmatik tish qoplari, sanasiya qilinmagan og'iz bo'shlig'i, nuqsonli plombalar, protezlar, ortodontik apparatlar, zararli odatlar, til va lablardagi yuganchalar.

Umumiy faktorlarga genetika, immun mexanizmlar, gipovitaminozlar, avitaminozlar, nerv-trofik buzilishlar, endokrin sistemasidagi o'zgarishlar, moddalar almashinuvining buzilishi, qon tomir sistemasidagi o'zgarishlar, psixo-emosional holatdagi o'zgarishlar jamlanmasi kiritiladi.

Shu omillardan kelib chiqib, parodontitning etiopatogenezi ko'rib chiqadigan bo'lsak, avvalo yillar davomida ushbu kasallikni o'rganish qanday rivojlanganligini tarixiy nuqtai nazardan baholash uchun ba'zi epidemiologik tadqiqotlarni qisqacha eslatib o'tish kerak.

1950-yillarda Hindistonda "Marshall Day" nomli tadqiqot (1955) olib borildi va unda 1187 stomatologik bemorlarda gingivit va destruktiv parodontitni ajratish uchun alveolyar suyak balandligining o'zgarish tendensiyasi o'rganildi. Tadqiqot natijasida quyidagi holatlar aniqlandi:

1) yoshning o'sishi bilan "suyak to'qimasiga bog'liq bo'lmagan parodont kasalligi" bilan og'riqan bemorlar ulushining kamayishi, "surunkali, destruktiv parodontal kasallik" bilan og'riqan bemorlar ulushining ko'payishi bilan birga keladi;

2) 40 yoshdan keyin destruktiv parodontitning 100% paydo bo'lishi kuzatiladi.

1960-yillarda Sherp (1964) parodontal kasallikning epidemiologiyasi bo'yicha mavjud adabiyotlarni ko'rib chiqdi va quyidagi xulosalarga keldi:

1) parodontit 35-40 yoshdan keyin aholining ko'pchiligiga ta'sir qiluvchi stomatologiyaning global muammosi bo'lib hisoblanadi;

2) kasallik gingivit sifatida boshlanadi, agar davolanmasa, progressiv destruktiv parodontitga olib keladi;

3) >90% parodontdagi o'zgarishlarni yosh va og'iz bo'shlig'i gigienasi bilan izohlash mumkin.

Shunga o'xshash tushunchalar, parodontit patogenezi bo'yicha o'rnatilgan bilimlarga asoslanib 1970-yillarning oxirigacha adabiyotda hukmronlik qildi.

1980-yillarda parodontal kasallikning o'ziga xos mahalliy belgilarining batafsil ko'rinishlarini va turli xil populyatsiyalar orasida hamda har bir populyatsiya ichidagi parodontit simptomlarning kuchli o'zgaruvchanligini ta'minlovchi tadqiqotlar taqdim etildi.

Keyingi tadqiqotlar natijasida suyak plastinkasidagi destruktiv jarayon va usbu holatda tishlarning zararlanish darajasi (ya'ni, jarayonda ishtirok etgan tishlar ildiz yuzasida cho'ntak hosil bo'lgan maydonlarining nisbati) va zararlanishning og'irligi (biriktiruvchi to'qimalarning yo'qotilishining aniq miqdori) haqidagi tafsilotlarini o'rgana boshladi.

1988 yilda Baelum va uning jamoasi Keniyada o'tkazgan tadqiqotda 15-65 yoshdagi 1131 nafar bemorlardan olingan natijalarni tahlil qildilar. Guruhda og'iz gigienasi yuqori darajada yomon bo'lganda parodont to'qimasining yallig'lanishi blyashka, tosh va gingivit bilan bilan birga kuzatildi. <20% dan kam bemorlarda chuqur cho'ntaklar (>4 mm) topildi. Ularning tush ildizlarida chuqur cho'ntaklarli va boylamlarning progressiv yo'qotilishi bilan kuzatilgan sohalar nisbati har bir bemorda sezilarli darajada turli xil taqsimlanganligi ko'rildi. Tadqiqotchilar "tishlarning sezilarli darajada yo'qolishiga olib keluvchi parodontning destruktiv o'zgarishlarini gingivitning muqarrar oqibati sifatida qabul qilmaslik kerak", degan xulosaga kelishdi. Parodont to'qimasi yallig'lanishiga moyilligi yuqori bo'lgan bemorlar uchun yanada aniqroq tavsiflashni talab qildilar.

1991 yil Shvetsiyada Salonen va uning tadqiqotchilar guruxi 20-80 yoshli 732 ta bemor ustida tadqiqot olib bordi. Ularni og'iz bo'shlig'i rentgen qilinib, alveolyar plastinka holati o'rganib chiqildi. 20-29 yoshlilarning 38 % ida - intakt parodont, 8% bemorda - 5% alveolyar plastinka so'rilishi kuzatildi. 50-59 yoshlilar orasida esa aksincha, 5% - intakt parodont va 75% bemorlarda - aiveolyar plastinkasida destruksiya kuzatildi. 40 yoshdan katta bulgan ayollarning

parodont to'qimasining holati, shu yoshdagi erkaklarnikidan birmuncha darajada yaxshiroq holatdaligi aniqlandi.

2007 yilda Wang va uning tadqiqotchilar jamoasi 1590 kishilik gurux tuzishdi. Guruxda 25 yoshdan katta va og'zida 14 tadan ko'p tishlari bolgan fermerlardan va shahar ishchilaridan teng sonli shaxslar tanlandi. Qishloq aholisining milklari zondlanganda o'rtacha 40% ida milkarda qonash kuzatildi. Saharliklarda esa 35% ida milklarda qonash kuzatildi. Alveolyar o'siqning 4mm dan ko'p so'rilishi (Al >4mm) 25-34 yoshlilari qishloq aholisining-10% ida, 35-44 yoshlilarda-31%, 45-59 yoshlilarda-53%, 60 yoshdan kattalarda esa-70 % ida kuzatilgan. Shahar aholisidan tuzilgan guruhda esa 25-34 yoshlilarning-10% ida, 35-44 yoshlilarning-18 %, 45-59 yoshlilarning-38 %, 60 yoshdan kattalarda esa-57 % ida kuzatilgan.

2022 yilda A.V. Shipskiy, R.R.Shakirova, Y.V.Lekomsevalar "Kazan medical journal"da chop etgan "Признак стороны в состоянии зубов и пародонта у жителей большого города, обнаруженный в процессе эпидемиологического обследования, по данным осмотра и инструментального исследования" ("Yirik shahar aholisini epidemiologik tadqiqotlar paytida ko'rikdan o'tkazish va instrumental tekshiruv natijalariga ko'ra tish va parodont holatining tomonlar belgisi") deb nomlangan maqolasida, JSST mezonlari bo'yicha yosh toifalarida 107 nafar aholida tish va parodontni instrumental tekshirishni o'tkazganini aytadi. Tadqiqot tasodifiy va ixtiyoriy ravishda o'tkazilgan. Xulosalar statistik ishlov berish natijalariga asoslangan. Natijalarga ko'ra tekshiruv davomida jag'larning chap tomonida 51,0% kasallangan tishlar topilgan. Jag'larning o'ng tomonida kariyes tishlari 53,2%, tishlarning ikkilamchi yo'qotilishi 53,2%, milklarning qonashi - 51,9%, patologik parodontal cho'ntaklar 59,5%. Kuzatishlar asosida o'ng tomonning ustuvorligi sezilarli darajada 62,0% deb topildi. Gigienik sabablarga ko'ra tish va milk kasalliklari jag'ning o'ng tomonida ustun bo'lishi kerakligi haqidagi gipoteza keyingi tekshiruvlar davomida tasdiqlandi. Xulosa qilib aytganda, topilgan "tomonlar belgisi" tasodifiy emas. Bu individual gigienaning turli xil samaradorligi bilan bog'liq. Aksariyat odamlar o'ng qo'ldir, bu jag'ning o'ng tomonida o'ng qo'lda murakkabroq harakatlarni qilish imkonini beradi. Ongli nazoratsiz doimiy gigiena xatolari asta-sekin qo'shimcha kariesogen va parodontopatogen omilga aylanadi. Mualliflarning fikricha, o'ng qo'llarni (yoki o'xshashlik bo'yicha chap qo'llarni) qo'l harakatlarini nazorat qilish zarurligi haqida aholini xabardor

qilish jag'ning har ikki tomonida gigiena sifatini yaxshilashga yordam beradi va tish va periodontal kasalliklarning tarqalishini kamaytiradi.

Yana olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda immun faktorlarning ta'siri, sitokin komplekslarning ta'siri, parodontopatojen mikrofloraning ta'siri, organizmda kechayotgan somatik kasalliklarning ta'siri o'rganib chiqilgan.

Shuningdek, parodontitning yallig'lanish belgilarining namoyon bo'lishi va rivojlanib borishi yana boshqa ko'pgina omillarga bog'liq: bemorning individual xususiyatlari, ijtimoiy sharoiti, xulq-atvori, genetik omillar, organizmda kechayotgan yondosh kasalliklar ta'siri, tishlardagi turli darajadagi o'zgarishlar, tish plastinkasining mikrobial tarkibi va boshqa xavf omillari.

Bundan tashqari, klinik mikrobiologiyaning rivojlanishi bilan, turli xil klinik sharoitlarda ma'lum bir bakteriyalar turlarining birga kelishi kuzatilgan. Natilada parodontopatojen mikroorganizmlar turlarning o'ziga xos bo'lgan komplekslari shakllanib, har xil klinik sharoitlarda parodontda yallig'lanish kasallikning rivojlanishida eng muhim omil bo'lishi haqidagi gipotezani keltirib chiqardi.

Ovqat hazm qilish organlarining surunkali yallig'lanishi fonida parodont to'qimasida ham yallig'lanish rivojlanishi uchun qulay sharoitlar paydo bo'ladi. Chunki bu holatda boshqaruv mexanizmlarida buzilish yuzaga keladi: immun va endokrin disbalans, endotoksikoz, mikrosirkulyasiya buzilishi, neyrohumoral boshqaruvning buzilishi, psixosomatik, biriktiruvchi to'qima metabolizmida o'zgarish, mineral almashinuvining buzilishi, vitaminlar etishmovchiligi yuzaga keladi. Ushbu bemorlarda parodontal cho'ntak mikroflorasining tarkibi polimikrobiyal xarakterga ega bo'ladi. Birinchi tartibli parodontopatojenlar *Actinobacillus actinomycetemcomitans*, *Prevotella intermedia*, *Porphyromonas gingivalis*, *Bacteroides forsythys*, *Treponema denticola* miqdori yuqoriligi kuzatiladi.

Qandli diabet bilan og'rigan bemorlarda parodontit deyarli 100% hollarda uchraydi va agressiv kechish tabiati bilan ajralib turadi. Qandli diabetda yuzaga keladigan giperglikemiya gingival suyuqlik va so'lakdagi glyukoza darajasining oshishiga olib keladi, bu esa subgingival blyashkadagi patogen bakteriyalarning rivojlanishiga yordam beradi, natijada parodont to'qimasida patologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Qandli diabet bilan og'rigan bemorlarda tish plastinkasida *Capnocytophygas* shtammlari, anaerob harakatlanuvchi tayoqchalar, spiroxetalar *Porphyromonas gingivalis* va *Treponema denticola* ustunlik qiladi. Parodontda yallig'lanish jarayonlarining paydo bo'lishiga yordam beradigan boshqa omillardan, endogen kollagenaza faolligining oshishi, neytrofil granulotsitlarning disfunktsiyasi (fagotsitoz, ximotaksis), mikroangiopatiya va kserostomiya ko'rsatib o'tish mumkin.

O'tgan 100 yil davomida parodontal infeksiyalarning keng qamrovli mikrobiologik tadqiqotlari kasallik patogenezi fundamental tabiati haqida bir qator farazlarni shakllantirishga olib keldi. Tish plastinkasidagi bakteriyalar parodontal to'qimalarda yallig'lanish reaksiyasining rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida qaraladi, va parodontopatojen mikroorganizmlarning ko'payishi oxir-oqibat parodont to'qimasida halokatli kasallikka olib keladi. Shu sabablarga ko'ra, parodontitning etiologiyasi haqidagi qarashlar o'zgardi va endi hal qiluvchi omil o'ziga xos bakteriyalar, parodontopatojenlarning mavjudligi va haddan tashqari ko'payishi, shuningdek yallig'lanish sohalarining turli chuqurliklarida anaerob mikrofloraning miqdoriy darajalari har xil bo'ladi degan qarashlar shakllandi.

Maxsus parodontopatojen komplekslar gipotezasi, shuningdek, bu organizmlarning og'iz bo'shlig'iga qayerda va qanday kirib borishi haqida savol tug'diradi. Agar ular ekzogen tarzda kelgan bo'lsa, ular hayotning boshida olingan og'iz mikrobiotasining bakterial jamoasining bir qismi bo'lishdan ko'ra, boshqa odamdan yuqishi mumkin. Bunday holda, inson populyatsiyasi ichida yuqishning oldini oladigan yoki cheklaydigan strategiyalar foydali bo'ladi.

Lekin parodont to'qimasining yallig'lanishini chaqiruvchi omillar ko'pligi tufayli, kasallikning qanday boshlanishi, rivojlanishi va qanday natijalarga olib kelishini oldindan aytib berish qiyinchilik tug'diradi. Hozirgi vaqtda parodontit patogenezi tushunish shundan iboratki, mikroorganizmlar parodontal kasallikni boshlasa ham, kasallikning davom etishi va rivojlanishida immun-yallig'lanish reaksiyalari katta ahamiyat kasb etadi. Immun-yallig'lanish reaksiyalari bemorning sezuvchanligini boshqaradi va atrof-muhit omillari ta'sirida o'zgaradi. Surunkali umumiy parodontit bilan og'rigan bemorlarda tug'ma immunitet omillari mahalliy darajada - makrofag-fagotsitar seriyali hujayralar (Mf va Nf) mahalliy faollashishi va orttirilgan immun omillarning tanqisligi bilan tavsiflanadi. Bunda A va G sinfidagi immunoglobulinlar ham mahalliy, ham tizimli darajada kamaygan buladi.

Progressiv surunkali parodontit asosan B-hujayralarning zararlanishi bilan kechadi, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, parodontning barqaror yallig'lanishi Th1 va Th2 hujayralar ishtiroki bilan kuzatiladi. (Seymour va boshq., 1993). Ushbu kontseptsiyani hisobga olgan holda, kuchli tug'ma immunitet reaksiyasi ko'p miqdorda IL-12 sinteziga olib keladi, bu esa o'z navbatida Th1 javobiga, hujayra immunitetiga, himoya antitelalarini ko'payishiga va doimiy parodont yallig'lanish kasalliklarga olib keladi. Aksincha, zaif

tug'ma immunitet reaksiyasi B hujayralarning poliklonal faollashuvi bilan Th2 javobiga, vazifasini yaxshi bajara olmaydigan neprotektiv antitelalar ko'payishiga va parodont to'qimasining progressiv shikastlanishiga olib keladi. 20 yildan ko'proq vaqt oldin taklif qilingan bu gipoteza katta e'tiborga sazovor bo'ldi va parodontitda Th1 reaksiyasining pasayishi yoki Th2 reaksiyasining kuchayganligini ko'rsatadigan ko'plab tadqiqotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bundan farqli o'laroq, bir qator tadqiqotlar (asosan eksperimental hayvonlarda) parodontitda Th1 reaksiyasining kuchayishini taklif qildi, boshqalari esa Th0 hujayralarining rolini ta'kidladi. Biroq, odamlarda parodontit Th1 va Th2 hujayralarining muvozanati, Th2 profili tomoniga siljishi bilan bog'liqligi haqida umumiy kelishuvga kelindi. (Berglundh & Donati, 2005; Kinane va Bartold, 2007).

Xulosa

- parodontal yallig'lanish mahalliy va generalizasiyalashgan ko'rinishlaridan biri bo'lishi mumkin;
- parodontal yallig'lanish etiologiyada asosiy rol mikrosirkulyatsiya buzilishlari fonida patogen mikroorganizmlar miqdorining oshishi bilan bog'liq, ya'ni mikrobiologik omil muhim o'rin egallydi;
- parodont yallig'lanishida sitokinlar ta'sirida immun mexanizmlarida ham mahalliy, ham tizimli o'zgarishlar kuzatilib, parodont yallig'lanishining sitokin ta'sirida rivojlanishi kontseptsiyasi shakllantirildi. Shuni ta'kidlash kerakki, tarqalgan parodont surunkali yallig'lanishiga nisbatan, tarqalgan parodont yallig'lanishi qaytalanganda immunitetning gumoral omillari va nospetsifik himoya tizimidagi o'ziga xos o'zgarishlar bilan kichadi. Bu esa bemorlarni davolashda immunoterapiya va immunoprofilaktika elementlariga e'tibor qaratishni talab qiladi.

ADBIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bayakhmetova A.A., Ekeshva A.A. «Issledovanie parodontopatogennoy mikroflori parodontal'nix karmanov pri parodontite molekulyarno-geneticheskim metodom.» [Investigation of periodontopathogenic microflora of periodontal pockets in periodontitis by molecular genetic method]. Aktual'nye nauchnye issledovaniya v sovremennom mire [Current Scientific Research in the Modern World], 2017;5-3(25):15-20.
2. Ashurov G.G. Azimova S.M. Karimov S.M. «Chastota viyavleniya parodontopatogennix bakteriy pri patologii jeludochno-kishechnogo trakta.» // Vestnik Akademii meditsinskix nauk Tadjikistana 2017;4:12-15.
3. Slajneva E.C., Tixomirova E.A., Atrushkevich V.G. «Parodontopatogeni: noviy vzglyad. Sistematiicheskiy obzor. Chast 1. Stomatologiya detskogo vozrasta i profilaktika. 2020;20(1):70-76. DOI: 10.33925/1683-3031-2020-20-1-70-76.
4. X.P.Kamilov, K.A.Taxirova, Sh.T.Xojiakbarova, Sh.R.Boymirzaeva «Obzor sovremennix podxodov v etipatogeneticheskoy lechenii xronicheskogo parodontita.» // Medicine and innovations. 2021;2:30-36.
5. Shadieva Sh.Sh. Yallig'lanishli periodontal patologiyasi bo'lgan bemorlarda immun mexanizmlarining roli // Tibbiyotda yangi kun - Bukhoro 2020;4(32):314-322.(14.00.00. No 22)
6. Shadieva Sh.Sh. Helicobakter Pylori bilan bog'liq funktsional dispepsiya bilan og'rigan bemorlarda tish holati va hayot sifatining o'zgarishi // Gospodarka i innovatsie - Polsha 2022;21:283-284.(IF - 8.01)
7. Shadieva Sh.Sh. Gastroenterologik bemorlarning stomatologik muammolari // Kardiorrespirator tadqiqotlar maxsus soni 1.1 2021;103. ISSN: 2181-0974
8. Shadieva Sh.Sh. Shilliq qavat kasalliklari va oshqozon Helicobacter pylori bilan ifloslangan odamlarda og'iz bo'shlig'ining mahalliy immunitetining holati // Fan va ta'lim bo'yicha xalqaro konferentsiya. Frantsiya 202;132-133.
9. Shadieva Sh.Sh. Surunkali generalize periodontit va funktsional dispepsiyaning yallig'lanish kasalliklari bilan og'rigan bemorlarda og'iz bo'shlig'i mikroflorasining dinamikasi // Tibbiyotda Yangi kun - Bukhoro – 2022;9(47):137-138.(14.00.00.No22)
10. Radjabova A.F. «Patogeneticheskiye aspekti razvitiya sochetannix zabolevaniy polosti rta i jeludochno kishechnogo trakta» // O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlar: Davriy anjumanlar: Noyabr / 2022;18:11-12.
11. Radjabova A.F. «Patogeneticheskiye aspekti razvitiya sochetannix zabolevaniy polosti rta i jeludochno kishechnogo trakta» // O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlar: Davriy anjumanlar: Noyabr / 2022;18:11-12.
12. Radjabova A.F. Predicting the course of chronic generalized periodontitis // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. // ISSN NO: 2770-0003 // Date of Publication: 14-10 2022;13:96-99.
13. Rajabova A.F. Yallig'lanishli ichak kasalliklari bilan og'rigan bemorlarning stomatologik holatining xususiyatlari // Evroosiyo tibbiyot va tabiiy fanlar jurnali // oktyabr 2022;2(11):298-298. ISSN 2181-287X
14. Muxamadovna G. M. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining surunkali kasalliklarini erta tashxislash va davolashga zamonaviy yondashuv // Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali . 2023;2(5):332-340.
15. Giyazova M. M. Modern Treatment of Diseases of the Oral Mucosa and Periodontal Under the Influence of Covid 19 // International Journal on Integrated Education. 2021;4(10):96-97.

Qabul qilingan sana 20.11.2023